ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILI MUROJAAT SHAKLLARI TIZIMIDA KOGNITIV METAFORANING O'RNI

Abruyeva Zaxro Shokir qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Har bir tabiiy til olamni idrok etish va konseptuallashtirishning o'ziga xos usulini ifodalaydi. Konseptuallashtirish borliqning barcha jihatlarini, shu jumladan, ushbu borliqning ajralmas qismi bo'lgan insonni ham qamrab oluvchi yagona qarashlar tizimini aks ettiradi. Inson tafakkuridagi olam haqidagi bilimlar yig'indisi muayyan tarzda tuzilgan. Konseptual tuzilmalarni faqat til, uning kuzatishimiz mumkin bo'lgan shakllari orqali aniqlash mumkin. Bu esa keyinchalik nutqni tushunish va ishlab chiqarishning aqliy mexanizmini qayta tiklashga, shuningdek, inson tomonidan olinadigan ma'lumotlarni qayta ishlashda ishtirok etadigan, bevosita kuzatishdan yashirin bo'lgan bilim tuzilmalarini taqdim etishga olib keladi.

Atrofdagi voqelikni bilish jarayonida so'zlovchi shaxsda olamning qanday tuzilganligi va unda o'zi qanday o'rin tutishi haqidagi tushuncha shakllanadi. A.V. Kravchenkoning ta'kidlashicha, bu tushunchaning shakllanishiga biologik, fizik-geografik (tabiiy yashash muhiti), ijtimoiy-tarixiy (madaniy yashash muhiti) omillar ta'sir ko'rsatadi. Har bir insonning o'zini va atrof-muhitni anglash tajribasi mutlaqo o'ziga xos, shu bilan birga, har bir etnos o'zining barcha a'zolari uchun umumiy bo'lgan dunyo manzarasiga ega[1].

Har bir shaxs o'zini o'rab turgan voqelik to'g'risida global, yaxlit, uzluksiz shakllanadigan axborot tizimi mavjud bo'lgan olamning konseptual manzarasiga ega. Undagi olamning konseptual manzarasi bir xil emas: u o'z ichiga lingvomadaniy dunyoqarashga bog'liq bo'lmagan universal elementlarni (tilning antropotsentrikligi va inson tafakkurining antropomorfikligiga oid ma'lumotlar), lisoniy shaxsning milliy xarakterini aks ettiruvchi elementlarni, shuningdek, insonning ma'lumoti, ijtimoiy muhiti, e'tiqodi va boshqalarga bog'liq bo'lgan axborotni qamrab oladi[2].

Olam manzarasi mozaika kabi konseptlar va ular o'rtasidagi aloqalardan tashkil topadi. Konseptlar leksemalar yordamida voqelanadi. Natijada olamning lisoniy manzarasi shakllanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, olam manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'zaro bog'liqdir.

Tilga kognitiv yondashuvga ko'ra, olam haqidagi bilimlar inson ongidagi dunyo modeli deganda nima tushunilishi va uning tasavvuridagi olamning konseptual va lisoniy manzaralari nisbati qanday ekanligi haqida tasavvur beradi. Olam manzarasi obyektiv olamning global subyektiv tasviri sifatida inson ongida va uning o'z-o'zini kuzatishidan yashirin bo'lgan ruhiyatining chuqur qatlamlarida paydo bo'ladi va yashaydi.

Adresat tilda har tomonlama: tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, xatti-harakatlari bilan namoyon bo'ladi. So'zlovchi va adresat o'rtasidagi munosabatlarning barcha turlari (maqom, rol, shaxslararo va boshqalar) til tizimining tushunchaviy va tuzilmaviy tashkilotida turlicha aks etadi hamda murojaat toifasida aks ettirilgan ijtimoiy voqelikning bo'linishi va tartibga solinishi tamoyillarini tushunishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, biz ko'rib chiqayotgan kategoriyaning tuzilishi so'zlovchining murojaat shakllari bilan ishlashdagi xatti-harakatlarini, ya'ni o'zining subyektiv idrokini va obyektiv mavjud bo'lgan konseptlarni tavsiflashda so'zlarni qanday tanlashini aks ettiradi.Murojaat kategoriyasi barcha tillarda mavjud, ammo uning mazmuni har bir etnos uchun o'ziga xos bo'lganligi sababli, o'zbek tilida so'zlashuvchilarda olamning ham universal, ham milliy manzarasi shakllanganligi va ularning qismlarini murojaat shakllari orqali aniqlash mumkinligi haqida gapirish mumkin.

Olamning universal manzarasida so'zlovchining adresat haqidagi umumiy tasavvuri yo ma'lum bir maqom, rol egasi, yoki ma'lum fazilatlar bilan bezatilgan shaxs sifatida aks etadi. Har qanday jamiyatda uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar qat'iy tashkil etiladi va bu tashkilot adresatni nomlash shakllarida

[1] Кравченко А.В. Восприятие и категоризация// Языковая категори-зация (части речи, словообразование, теория номинации)/ Мат. Круглого стола, посвященного юбилею Е.С.Кубряковой по тематике ее исследований. М: Институт языкознания РАН, 1997.

[2] Бугакова Н.В. Категория обращения в свете когнитивной лингвистики (на материале французского языка). – Воронеж, 2001. – С.83.

o‘z aksini topadi.

Nazariy, amaliy va madaniy tajribadagi farqlar u yoki bu etnos uchun muhim bo‘lgan elementlar, xususiyatlar, hodisalarni aks ettiruvchi dunyo manzarasidagi farqlarni belgilaydi. Olamning lisoniy manzarasidagi farqlar ham shu bilan bog‘liq bo‘lib, uning o‘ziga xosligini milliy-o‘ziga xos ramzlar, timsollar, milliy va ijtimoiy-baholash stereotiplari tizimi va boshqalar belgilaydi. Dunyoning milliy manzarasi so‘zlovchiga adresatning undagi o‘rni haqida o‘ziga xos tasavvurni yetkazadi.

Tilning milliy o‘ziga xosligini o‘rganish faqat shaklni o‘rganish emas. Gumboldtning fikricha, «til va u bilan birga shu tilda so‘zlashuvchi xalq fikr ifodalashga intiladigan yo‘lni belgilash» imkoniyatidir[1]. Har qanday etnosda ma’lum turdagi ijtimoiy munosabatlarga ustuvorlik berilganligi sababli, adresatning roli ham uning ushbu munosabatlarda egallagan o‘rni bilan belgilanadi.

Ye.S. Kubryakovaning so‘zlariga ko‘ra, «til dunyo haqidagi bilimlarni belgi shaklida taqdim etishning eng tabiiy tizimiga kirishni ta’minlaydi va atrof-muhitni idrok etish xususiyatlari haqida nafaqat dunyoning kengaytirilgan tavsiflari, balki har bir alohida so‘z saqlaydigan ma’lumot bo‘laklari, ya’ni dunyoning barcha alohida qismlarining nomlari bo‘yicha ham fikr yuritish mumkin[2]». Har qanday kategoriya kabi murojaat kategoriyasi ham til egalari nutqiy xulq-atvorining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini, muayyan jamiyatda shakllangan me’yorlar va baholar tizimini aniqlash, shuningdek, jamiyat hayotidagi tilda o‘z aksini topgan tarixiy o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Murojaatlar so‘zlovchining adresatga bo‘lgan emotsional munosabatini yetkazishga qodir, shuning uchun yuqorida ko‘rsatilgan murojaatlar sinfi so‘zlovchining hissiy tajribasi haqidagi bilimlarni aks ettiradi, deyish mumkin. Bu bilimlar tabiat olamini, afsonaviy, xayoliy olamlarni aks ettiradi.

O‘tgan asrning 70-yillariga kelib metaforaga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi va u jahon tilshunoslarini qiziqtirgan lingvistik hodisaga aylandi. Metaforaga bo‘lgan qiziqish uning xossalari, xususiyatlari, tuzilishi, hodisaning mohiyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsani o‘rganish, til va tafakkur, til va bilish, til va bilim kabi tilshunoslikning asosiy muammolariga yangi yondashuvlarni ko‘rish imkonini berdi[3].

Amerikalik tilshunos olim J.Lakoff va M.Jonson o‘zining «Metaphors We Live By» asarida kognitiv metaforalar nazariyasiga asos soldi. Tadqiqotchilar metaforani dastlab konseptual konstruktsiya sifatida ko‘rib chiqdi va uning inson tafakkurining rivojlanish jarayonidagi asosiy o‘rnini aniqlab berdi. Asarda aytilishicha, konseptual metafora bu shunchaki stilistika metodi bo‘libgina qolmay, tafakkur va fikrlash usuli hamdir[4]. Konseptual metafora nazariyasi til va tafakkur o‘rtasidagi shunday munosabat modelini ifodalaydiki, konseptual va lingvistik ifodalar bir-biridan farq qiladi, ikkinchisi birinchisi haqida bizga ma’lumot berishi mumkin. Bu esa, til va psixik hodisalarning o‘zaro ta’siridagi tadqiqotlarning, xususan, metaforani lingvistikaning bugungi kundagi dolzarb tadqiqotlaridan biriga aylantirdi. Rus tilshunoslarining ta’biri bilan aytganda «lingvistik hodisa sifatida metaforaga yangidan hayot berdi»[5]. Metafora nominativ usul sifatida so‘zlashuv nutqida murojaat vositasi sifatida keng tarqalgan bo‘lib, uning yordamida so‘zlovchi adresatga emotsional ta’sir o‘tkazadi. Obraz yaratib, tasavvur va his-tuyg‘ularga murojaat qilib, metafora yangi ma’noni keltirib chiqaradi, bu esa dunyoning milliy o‘ziga xos ko‘rinishini yaratish jarayonlarini tushunishga olib keladi. Aynan uning yordamida so‘zlovchi adresatga emotsional ta’sir o‘tkazadi. Bunday murojaatlar xarakteri, tashqi ko‘rinishi yoki xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan odamlarga nisbatan ishlatiladi (eshak, tulki, farishta, cho‘chqa, echki va boshqalar). Bunday turdagi murojaatlar, albatta, ijobiy yoki salbiy baholanadi va emotsional idrok etiladigan shaxsning muayyan tipiga biriktirib qo‘yiladi. Ularga berilgan belgilar (tashqi, zoomorf va boshqalar) adresatning so‘zlovchi tasavvuridagi ijobiy yoki salbiy sifatlarini ko‘rsatadi va insonga yaqin bo‘lgan voqelikning o‘sha qismini (tabiat, his-tuyg‘ular, intellektual soha) konseptuallashtirishning milliy xususiyatlarini aks ettiradi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan otlar «hayvon nomlari», «mavhum tushunchalar» va «qimmatbaho buyumlar» leksik-semantik guruhlariga tegishlidir.

Dunyo haqidagi tasavvurlarni ifodalashda ham obrazli, ham kognitiv potensialga ega bo‘lgan murakkab lingvistik fenomen sifatida zoometaforalar har bir xalqning turmush tarzidan kelib chiqqan holda insonlarning ayrim fe’l-atvori, harakati va xarakterini tasvirlab beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zoonim

[1] Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человека. В кн.: Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 10.

[2] Кубрякова Е.С. Введение// Теория грамматики. – М., 1990. – С. 5.

[3] Осокина С.А, Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор. Мир науки, культуры, образования. №4. – С. 423.

[4] Lakoff. G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago, 1980. – P. 256

[5] Осокина С.А, Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор. Мир науки, культуры, образования. №4. – С. 424.

asosli metaforalar – bu hayvonlar yoki ularning xususiyatlari orqali inson hayoti yoki munosabatlariga oid tushunchalarni ifodalovchi tasavvurlar yoki ifodalardir. Hayvonlar ko‘pincha odamlarning xulq-atvori, ruhiy holati, ijtimoiy roli yoki tabiiy xususiyatlariga moslashtiriladi. Bunday metaforalar ko‘pincha ijtimoiy va madaniy tafakkurda kuchli tasvirlar yaratadi va tilga boy, rang-barang va tasavvurlarni kengaytiruvchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Zoometaforalar xalqning madaniy tajribasi, qadriyatlari, tarixiy va ijtimoiy kontekstiga bog‘liq bo‘lib, ular nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy o‘lchovlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilidagi zoometaforalar hayvonlarning xulq-atvori, tabiatini va ularning odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarini o‘zaro bog‘laydi. Ular o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Har bir hayvon, o‘zining tabiati, xulq-atvori yoki umumiy qabul qilingan xususiyatlari asosida turli ma’nolarni anglatadi.

Qadriyatlarimizda farzand uchun qo‘llanadigan murojaat birliklari alohida o‘rin tutadi. Erkalash maqsadida kichik yoshdagi bolalarga murojaatda hayvon va qush etalonidan foydalaniladi. Masalan, ***qo‘zichog‘im, quyoncham, musicham, qaldirg‘ochim*** kabi. Bunday murojaatlarning inson tafakkurida ijobiy ottenkaga ega bo‘lishiga sabab ularning o‘zbek madaniyatida o‘ziga xos o‘ringa egaligidadir. Musicha va qaldirg‘ochdan biri beozorlik, biri esa omad, quvonch timsoli bo‘lib, bolalardagi beg‘uborlik, beozorlik mazkur qushlarga qiyoslanadi. Ularning insoniyatga do‘stligi, qilgan yaxshiligi haqida turli afsonalar mavjud bo‘lib, bolalikdan ularni eshitgan xalqimiz ongida ezgulik xabarchisi sifatida o‘rnashib qolgan. Bu murojaatlarning kognitiv asosi ana shu afsonalarga borib taqaladi. Qo‘zichoq va quyon etalonidan foydalanishi esa o‘zbek millatining uzoq o‘tmishiga borib taqaladi. Xalqimiz qadimdan, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Chorvaning har tomonlama keltiradigan foydasi bisyor bo‘lib, ulardan biri chorvadan olinadigan mo‘ynadir. Yangi tug‘ilgan qo‘zichoqlarning yungi o‘ta mayin, yumshoq va qimmatbaho bo‘lgan. Quyonlarning ham yungi mo‘yna olish uchun qimmatbaho homashyo hisoblangan[1]. Qorako‘lchilikdan yaxshi xabardor bo‘lgan xalqimiz tafakkuriga bu kognitiv bilimlar qadimdan o‘rnashib kelgani bois bolalarning qadr-qimmatliligini ta’kidlash, mayin va nafisligini e’tirof etish maqsadida mazkur birliklardan foydalangan. Bu faqat turkiy xalqlarga xos bo‘lib, rus va ingliz madaniyati, umuman, Yevropa madaniyatida quyon qo‘rquv ramzi bo‘lgani bois ularning murojaat so‘zi sifatida qo‘llanishi uchramaydi.

	Hayvon nomi	Konnotativ ma’no	Gender xoslanish
1	Quyon (quyoncham)	Mayinlik, yumshoqlik	Ikkala jinsga ham
2	Mushuk (mushukcham, mushu qizim)	Erkalik, yumshoqlik	Asosan, qizlarga
3	Qo‘zichoq (qo‘zichog‘im)	Mayinlik, noziklik, beozorlik, sho‘xlik	Asosan, o‘g‘il bolaga
4	Qaldirg‘och (qaldirg‘ochim)	Quvonch elchisi, baraka tashuvchi, jarangdorlik, beozorlik, insonparvarlik, harakatchanlik	Ikkala jinsga ham
5	Musicha (musicham)	Beozorlik, mayinlik, kichiklik	Ikkala jinsga ham

Shuningdek, o‘smir yoshdagi farzandlarga ***arslonim, lochinim, burgutim, shunqorim*** murojaatlarining qo‘llanishi ham xalqning kognitiv bilim salohiyatining natijasidir. Mazkur murojaatlardan chaqaloqqa yoki yosh bolaga nisbatan foydalanilmaydi. Sherlarning ulg‘ayib, mustaqil ov qilish, o‘zini o‘zi himoya qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan holatiga nisbatan arslon nomi qo‘llangani bois yigitlarning voyaga yetgan, biror ishda uddaburonlik ko‘rsatgan yoshga yetganida bu murojaat o‘rinli hisoblanadi. Har ikki shaklni bog‘lab turgan sema «uddaburonlik», «ulg‘ayganlik» semalaridir.

Ushbu murojaat shakllari: arslonim, lochinim, burgutim, shunqorim – bir xil «hayvon → inson» ko‘chirishiga tayanadi, lekin turli kognitiv belgi-xususiyatlarni faollashtiradi. Ularning kognitiv mexanizmi konseptual metafora va metonimiyaning uyg‘unlashuvi (metaftonimiya) asosidsa vujudga kelgan: HAYVON NOMI → (stereotip xususiyatlar) → INSON.

Bunda «manba maydoni» (yirtqich hayvon/qush) «maqsad maydoni»ga (bola/yigit/yaqin inson) asos bo‘lgan.

Zoometafora asosidagi murojaatlar orasida lug‘atlarda ko‘chma ma’nosi qayd etilgan uzual va ko‘chma ma’nosi beqaror bo‘lgan okkazional turlar ajratiladi. Okkazional murojaatlardagi metaforik so‘zni tushunish uchun ushbu zoomorfizm ishlatilgan nutqiy vaziyatni tahlil qilish talab etiladi. Masalan, quyon so‘zi ham erkalash, ham qo‘rqoq insonlarga nisbatan kesatiq ma’nosida qo‘llanishi mumkin.

[1] Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2005. – Б.345-420

Zoometaforik ko‘chimga asoslangan murojaatlar nafaqat meliorativ, balki peyorativ mazmunni ham ifodalaydi. Ular orqali kamsitish, haqorat, masxara qilish maqsadlari amalga oshiriladi. ***Ey ho‘kiz, echki, eshak, ilon, tulki, bo‘ri*** kabi hayvon nomlari HAYVON → INSON ko‘chimi asosida hayvon manba maydonidan inson maqsad maydoniga o‘tadi. Ho‘kiz gavdasi katta, faqat yeb yotadigan, qo‘lidan bir ish kelmaydigan o‘g‘il bolaga, echki qaysar, gapga tushunmaydigan, o‘zini aytganidan qolmaydigan, yengiltak fe’l egalariga, eshak go‘l, fahmi kalta kishilarga, ilon tili yomon, vaziyatdan foydalanib qoladigan, muammolardan silliq chiqadigan ayollarga, tulki ayyor, vaziyatga qarab tuslanadigan sotqin insonlarga, bo‘ri to‘daboshisi, yirtqich, tajovuzkor odamlarga nisbatan assotsiatsiyalanadi va murojaat sifatida qo‘llanadi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari nomlarining konseptual metaforik ko‘chimi asosida vujudga kelgan murojaat shakllari ham mavjud. Erkalash maqsadida qo‘llanuvchi ***asalim, shakarim, novvotim, parvardacham*** kabi murojaat shakllari «Ta’m → inson» ko‘chimiga asoslanadi. Bu kabi metaforik erkalashlar bolaning yoqimliligi, sevimliligi bilan bir qatorda, shirin ta’m insonga quvvat, yaxshi kayfiyat bergani kabi insoniyat ham farzandidan, yosh bolalardan kayfiyat, charchaganida quvvat olishiga ishora sifatida tanlanadi. Ta’m manba maydoni vazifasini bajarsa, inson xuxusiyatini ifodalash uchun maqsad maydoniga ko‘chiriladi. Bunda «*shirinlik*», «*kayfiyatni ko‘taruvchi*» semalar bilan birga asalning belgisini ifodalovchi «*shifobaxshlik*» semalari ham faollashadi, ya’ni yosh bolaning bolalarcha mehri, samimiyligi ota-ona uchun shifo, quvvat manbaidir.

Bundan tashqari oilaviy munosabatlarda er-xotin muloqotida hayotim, jonim, yuragim kabi erkalash shakllari ko‘p uchraydi. Mavhum tushunchalar manba maydoni vazifasida kelib, inson maqsad maydoniga proyeksiyalanadi. Hayot so‘zi arabcha حَيَاة(ḥayāt) – «tiriklik, yashash» so‘zidan olingan. Hayy «tirik», iḥyā «jonlantirish» ma’nolarini ifodalaydi. Jon, hayot so‘zlari tiriklik semasini faollashtirar ekan, ushbu so‘z murojaat sifatida qo‘llanganda adresat tinglovchi shaxsni o‘zining tiriklik manbai, hayotiy maqsadi sifatida yaqin ko‘rishini ta’kidlashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, hayot so‘zi bilan bir asosdan tashkil topgan hayvon so‘zi ham aslida tiriklik ma’nosini ifodalaydi: arabcha حَيَوَان (ḥayawān) dan kirgan. Uning ildizi «tirik bo‘lish, yashamoq» bo‘lib, ḥayy «tirik», ḥayā(h) «hayot» so‘zlari bilan bir asosga ega. Dastlabki ma’nosi «hayot, tiriklik» (Qur’onda 29:64 oyatda al-ḥayavan «(haqiqiy) hayot» ma’nosida keladi); keyin «tirik mavjudot», undan torayib ko‘plab tillarda «(odamdan boshqa) hayvon» ma’nosiga ixtisoslashgan. Bugungi kunda ushbu so‘zning toraygan ma’nosi keng tarqalgan hamda «ey hayvon» deb murojaat qilinsa, oldin tiriklik ma’nosini ifodalagan bo‘lsa, endi haqorat sifatida qabul qilinadi.

Demak, metaforik ma’no ko‘chishi yordamida hosil qilinuvchi murojaat shakllarining ma’nolari uning komponentlari bilan bog‘liq konseptning kognitiv maydoni hamda «konseptual metafora» deb nomlanuvchi kognitiv mexanizm asosida shakllanadi.

Rezyume. Maqolada murojaat shakllarining kognitiv xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi, xususan, metaforik ma’no ko‘chishining murojaat kategoriyasi tizimida tutgan o‘rni, mazkur hodisani yuzaga keltiruvchi omillar va inson tafakkuridagi tajribalar asosida to‘plangan bilimning voqelanishida kognitiv metaforaning o‘rni masalalari yoritildi.

Resume. This article examines the cognitive features of forms of address, specifically focusing on the role of metaphorical meaning transfer within the address category system. It explores the factors that give rise to this phenomenon and discusses the function of cognitive metaphor in manifesting knowledge accumulated through human cognitive experiences.

Резюме. В статье рассматриваются когнитивные особенности форм обращения, в частности, роль метафорического переноса значения в системе категории обращения, факторы, вызывающие это явление, а также роль когнитивной метафоры в реализации знаний, накопленных на основе опыта в человеческом мышлении.